

**2017-2024 YILLARDA NAMANGAN VILOYATIDA MAKTABGCHA
TA'LIM TIZIMINING RIVOJI**

*Adasheva Shoira,
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Tarix yo'nalishi 2 kurs magistranti
Email: shoiraadasheva@gmail.com
Тел: +998992220485*

Annotatsiya

Mazkur maqolada 2017-2024 yillarda Namangan viloyatida maktabgacha ta'lismizining rivoji, erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar tahlil qilingan. Ushbu davrda ta'lismizining sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar, xususan, yangi davlat maktabgacha ta'lismizning muassasalarining tashkil etilishi, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash choralari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, bolalarni maktabgacha ta'lismiz bilan qamrab olish darajasining oshishi, innovatsion ta'lismiz metodlarining joriy etilishi va xususiy sektorning faolligi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Namangan viloyati, maktabgacha ta'lismiz, ta'lismizning tizimi, islohotlar, moddiy-texnik baza, zamonaviy texnologiyalar, ilk qadam, davlat dasturi

**РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В 2017-2024 ГОДАХ**

Аннотация

В данной статье анализируется развитие системы дошкольного образования Наманганской области в 2017-2024 годах, ее достижения и имеющиеся проблемы. В этот период рассматривались реформы, направленные на повышение качества образования, в частности, создание новых государственных и негосударственных дошкольных образовательных учреждений и меры по укреплению их материально-технической базы. Также была отмечена работа по повышению уровня охвата детей дошкольным образованием, внедрению инновационных методов обучения, активности частного сектора.

Ключевые слова: Наманганская область, дошкольное образование, система образования, реформы, материально-техническая база, современные технологии, первый шаг, государственная программа

**DEVELOPMENT OF THE SCHOOL EDUCATION SYSTEM IN
NAMANGAN REGION IN 2017-2024**

Abstract

This article analyzes the development of the preschool education system in Namangan region in 2017-2024, its achievements and current problems. Reforms aimed at improving the quality of education during this period are considered, in particular, the establishment of new state and non-state preschool educational institutions, measures to strengthen their material and technical base. It also describes the work carried out to increase the level of coverage of children with preschool education, the introduction of innovative educational methods, and the activity of the private sector.

Keywords: Namangan region, preschool education, education system, reforms, material and technical base, modern technologies, first step, state program.

Kirish.

O'tgan qisqa vaqt mobaynida maktabgacha ta'lim tizimida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi farmon va qarorlari, shuningdek, "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Dasturi hamda respublikada maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" asosida bir qator amaliy ishlar amalga oshirildi.

Maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

Asosiy qism. Davlatimiz tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalari sonini kengaytirish bilan birga, ushbu muassasalarda ta'lim sifatini oshirishga ham e'tibor qaratildi. 2018-yilda maktabgacha ta'lim bo'yicha yangi milliy "Ilk Qadam" o'quv dasturining joriy etilishi butun mamlakat bo'ylab maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilayotgan o'qitish usullari va mazmunini standartlashtirishga yordam berdi. Bundan tashqari, o'quv dasturlari va malaka oshirish imkoniyatlari orqali maktabgacha ta'lim muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar amalga oshirildi.

Bunday yutuqlarga qaramay, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda hali ham yechimini kutayotgan vazifalar mavjud. Hal etilishi lozim bo'lgan asosiy muammolardan biri bu shahar va qishloq joylarida maktabgacha ta'limdan foydalanish imkoniyatining nomutanosibligidir. Qishloq joylarda

maktabgacha ta'lim muassasalari sonini ko‘paytirish bo‘yicha muvaffaqiyatlar kuzatilayotgan bo‘lsa-da, shahar muassasalariga nisbatan sifat va resurslar bo‘yicha hali ham jiddiy kamchiliklar mavjud.

2017 yildan keyin respublikaning boshqa viloyatlaridagi kabi Namangan viloyatida ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni va ularga bolalar qamorivi o‘sib bordi. Jumladan, 2020 yil 669 ta, 2021 yil 653 ta, 2022 yil 686 ta, 2023 yil 689 ta va 2024 yilda 3612 ta. Raqamlardan ko‘rishimiz mumkinki, 2024 yil boshida viloyatda maktabgacha ta'lim tashkilotlari miqdori keskin o‘sganligi kuzatildi.

Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini qo‘sghan holda, 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, 3612 tani tashkil etdi, bu esa 2020-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 2943 taga (ya’ni 18,5 barobarga) oshgan [1]. 2020-2024 yillarda viloyatdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni quyidagicha bo‘lgan:

Agar 2024-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining eng katta qismi To‘raqo‘rg‘on (475 ta), Uychi (470 ta) va Yangiqo‘rg‘on (455 ta) viloyatlarida kuzatilgan bo‘lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko‘rsatkich Mingbuloq (135 ta), Namangan (172 ta) va Norin (183 ta) viloyatlarida qayd etilgan

2024-yil 1-yanvar holatiga hududlar kesimida eng ko‘p maktabgacha ta'lim tashkilotlari 2024-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining eng katta qismi Samarqand (4285 ta), Andijon (3991 ta) va Farg‘ona (3922 ta) viloyatlarida kuzatilgan bo‘lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko‘rsatkich Toshkent sh.(1025 ta), Sirdaryo (1182ta) va Navoiy (1385 ta) viloyatlarida qayd etilgan [2]. Namangan viloyati esa 3612 ta ta'lim tashkiloti bilan respublika bo‘yicha 4- o‘rinda turgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o‘rinlar soni ushbu sohadagi eng muhim ko‘rsatkichlardan biri deb hisoblanib, barcha kichik yoshdagi bolalarga bolalar bog‘chalariga borish va maktabga tayyorgarlik ko‘rish imkoniyatini davlat va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan ta’minlanishini aks ettiradi. Jumladan, 2024 yil boshida viloyatdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o‘rinlar soni yillar kesimida quyidagicha edi: 2020 yilda 106,3 ming, 2021 yilda 112,6 ming, 2022 yilda 108,7 ming, 2023 yilda 119,0 ming va 2024 yilda 266,4 ming. Mazkur raqamlarda oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o‘rinlar soni hisobga olinmagan

2024-yil 1-yanvar holatiga maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o‘rinlar sonining eng kata qismi Namangan shahri (49078 ta), Uychi (26945 ta) va Chust (25474 ta) viloyatlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko‘rsatkich Uchqo‘rg‘on (14998 ta) hamda Mingbuloq (12696 ta) viloyatlarida kuzatilgan.

Bunga mos ravishda 2020-2024 yillarda ta'lim tashkilotlaridagi guruhlar soni ham ortib borgan. Jumladan, 2020 yilda 4125 ta, 2021 yilda 4696 ta, 2022 yilda 6198 ta, 2023 yilda 5250 ta va 2024 yilda 9470 ta. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi guruhlar bolalarni tarbiyalash va o'qitish jarayonida muhim rol o'yнaydi. Ushbu guruhlar bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, bu esa ularning har tomonlama rivojlanishi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratishga imkon beradi. 2024-yil 1-yanvar holatiga hududlar kesimida eng ko'p maktabgacha ta'lim tashkilotlari guruhlari Namangan sh(1529 ta), Uychi (1005 ta) va To'raqo'rg'on (945 ta) tumanlarida qayd etilgan, boshqa hududlar bilan solishtirganda, eng past ko'rsatkichlar Mingbuloq (430 ta) hamda Namangant (522 ta) tumanlarida kuzatilgan. Bu yerda oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlar soni hisobga olinmagan.

2024 yil 1-yanvar holatiga hudular kesimida eng ko'p maktabgacha ta'lim tashkilotlari guruhlari Samarqand (11492 ta), Farg'ona (11323 ta) va Andijon (11104 ta) viloyatlarida qayd etilgan, boshqa hududlar bilan solishtirganda, eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo (3024 ta) hamda Navoiy (3402 ta) viloyatlarida kuzatilgan [2]. Namangan viloyati esa 9470 ta guruh bilan respublika bo'yicha 4- o'rinda turgan.

Namangan viloyatida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni 2024-yilning 1-yanvar holatiga 192,4 ming nafarni tashkil etdi, bu esa 2020-yilning 1-yanvariga nisbatan 82,1 ming kishiga (ya'ni 57,3%ga) oshgan.Ta'lim tashkilotlarida bolalar soni dinamikasi yillar davomida notekis ravishda o'zgarib turdi. Jumladan. 2020 yilda 110,3 ming, 2021 yilda 126,3 ming, 2022 yilda 122,7 ming, 2023 yilda 121,0 ming va 2024 yil boshida 192,4 ming [1].

2024-yilning 1-yanvar holatiga maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar sonining eng ko'p qismi Namangan sh (32612 ming kishi), To'raqo'rg'on (18642 ming kishi) va Uichi (18430 ming kishi) viloyatlarida qayd etilgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkich Mingbuloq (9671 ta) hamda Namangan (12253 ming kishi) viloyatlarida kuzatilgan.

2024 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra Namangan viloyatida doimiy yashovchi aholi soni 2023 yil boshiga nisbatan 68,6 ming kishiga yoki 2,3%ga ko'payib, jami 3 066 ming kishini tashkil etgan. Hududlar kesimida qaralganda, Namangan shahri (697 ming), Chust (286 ming) va To'raqo'rg'on tumani (245 ming) viloyatdagagi eng ko'p aholi istiqomat qiluvchi hududlar hisoblanadi [3].

2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra Namangan shahri aholisi soni 408530 nafar bo'lib, undan 6 yoshgachalar – 40853 nafar, 7-17 yosh – 48207 nafar, 18-29 yosh – 49024 nafar, 30-60 yosh – 175668 nafar, 60 yoshdan baland – 89060 nafar, 80 yoshdan yuqorilar – 5719 nafarni tashil etgan [4]. Demak, Namangan shahridagi 6 yoshgacha bo'lgan 40853 nafar bolalarning 32612 nafari bog'chaga jalb etilgan

Mazkur bolalarning gender taqsimotida qiz bolalarga nisbatan o‘g’il bolalar ulushi boshqa viloyatlardagi kabi ko‘proq bo‘lgan. 2024-yilning 1-yanvar holatiga maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi bolalar sonida o‘g’il bolalarning ulushi 53,3%ni, qizlarning ulushi esa 46,7% ni tashkil etgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, 2020 yildan 2024 yilgacha bo‘lgan davrda ham qizlarga nisbatan o‘g’il bolalar ulushi ortiqroq bo‘lgan. Bu respublika aholisi ulushida erkaklar sonining ayollar soniga nisbatan ko‘proq bo‘lgan.

Maktabgacha ta’lim yosh bolalarning rivojlanishidagi hal qiluvchi bosqichdir, chunki bu ularning kelajakdagi ilmiy muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. O‘zbekistonda hukumat tomonidan keyingi yillarda maktabgacha ta’lim sifati va undan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’limni rivojlantirish yo‘lidagi asosiy yutuqlardan biri maktabgacha ta’lim muassasalarini va bolalar bog‘chalari sonining sezilarli darajada 8ko‘payganidir. 2012-yilda O‘zbekistonda jami maktabgacha yoshdagi bolalarning atigi 23 foizi maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olingan bo‘lib, qishloq joylarda bu ko‘rsatkich 8,5% ni tashkil etdi. 2017-yildan buyon maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida bugungi kunda O‘zbekistonda maktabgacha yoshdagi bolalarining 71,8% dan ortig‘i maktabgacha ta’lim muassasalariga qamrab olingan. Maktabgacha ta’limning mavjudligining bunday ortishi butun mamlakat bo‘ylab, ayniqsa, avvallari maktabgacha ta’lim muassasalarini yetishmayotgan qishloq joylarida bolalarning foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashga yordam berdi.

Ayniqsa so‘ngi yillarda davlatimizda 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish bo‘yicha sezilarli o‘sish kuzatilmoqda. Jumladan, 2020-yilning 1-yanvar holatiga bolalarning 20,8%i, 2021 yil 54,9 %, 2022 yilda 62,3 %, 2023 yilda 66,4 %i maktabgacha ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilning 1-yanvar holatiga esa bu ko‘rsatkich 71,4%gacha yetdi [1]. Ushbu ijobjiy tendensiyani bolalarni erta bolalik davrida har tomonlama rivojlanishi uchun ta’lim strategiyalari va dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasi sifatida baholash mumkin.

Namangan viloyatida ham bu borada bir qator samarali ishlar amalga oshirildi. Viloyatda 3-6 yoshdagi bolalarning eng ko‘p qismi Namanagn shahri (89,0%), Uychi (86,5%) va To‘raqo‘rg‘on (84,4%) tumanlarida maktabgacha ta’lim bilan qamrab olingan bo‘lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past qamrov Chortoq (70,0%) hamda Kosonsoy (71,6%) tumanlarida kuzatilgan. Viloyatda mazkur yoshdagi bolalarning maktabgacha ta’lim qamrovida o‘g’il bolalarning foizi qizlarga nisbatan ko‘proq bo‘lgan [1]. Ya’ni, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 3-6 yoshdagi o‘g’il bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrovi 72,9%ni, qizlarning qamrovi esa 69,7%ni tashkil etdi.

Shuningedk O‘zbekistonda maktabgacha ta’limni rivojlantirish va maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni ta’lim bilan qamrab olishi maqsadida davlat tomonidan nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda davlat-xususiy sheriklik asosida tadbirkorlarga katta imtiyozlar berilmoqda. Xusan, respublika bo‘yicha 2023-yil iyul holatiga jami 30792 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, ulardan 6734 tasi davlat va 24058 tasi nodavlat (789 ta xususiy, 21941 ta oilaviy va 1328 ta nodavlat maktabgacha ta’lim muassasasi DXSH negizida). Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasalariga 2 million 111 ming 487 nafar yoki 72 foiz bola qamrab olingan bo‘lib, ulardan 647 ming 655 nafar olti yoshli bolaning 563 ming 331 nafari 2023-2024-o‘quv yilida maktabga qadam qo‘yadi [5].

Namangan viloyatida ham 2020-2024 yillar davomida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni ortib bordi. Bunda ayniqsa oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari salmog’i ancha katta. Namangan viloyatida oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 2024-yilning 1-yanvar holatiga 2870 tani tashkil etdi, bu esa 2020-yilning 1-yanvariga nisbatan 2805 taga oshgan [1]. Bu yerda 2020-2024 yillar davomida ta’lim tashkilotlari soni dinamikasi notekis bo‘lib ba’zan o‘sib, ba’zan kamayib borish hollari kuzatildi. Jumladan, 2020 yilda 65 ta, 2021 yilda 100 ta, 2022 yilda 70 ta, 2023 yilda 84 ta va 2024 yilda 2870 ta. Buni viloyat aholisining nodavlat ta’lim tashkilotlariga qiziqishi va ehtiyoji ortib borishi bilan bog’lash mumkin.

2024-yilning 1-yanvar holatiga viloyat bo‘yicha oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining eng katta qismi To‘raqo‘rg‘on (428 ta), Uychi (417 ta) va Yangiqo‘rg‘on (405 ta) tumanlarida qayd etilgan bo‘lsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko‘rsatkich Mingbuloq (70 ta), Norin (122 ta) hamda Namangan (131 ta) tumanlariga to‘g’ri kelgan.

Xullas, 2017-2024 yillar davomida respublikamizning qolgan hududlarida bo‘lgani singari Namangan viloyatida ham maktabgacha ta’lim tizimida elektorn ro‘yxatga qo‘yish, bolalarga davlat tomonidan ishlab chiqilgan “Ilk qadam” o‘quv dasturi asosida ta’lim berish usullari va mazmuni standartlashtirish va boshqa bir qator tizimli ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, viloyatda ushbu yillar davomida oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, undagi bolalar miqdori va qamrovi ortib bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Namangan viloyatida maktabgacha ta’limning asosiy stasistik ko‘rsatkichlari (2024 yil 1-yanvar holatiga). Namangan viloyati statistika boshqarmasi. – Namangan, 2024 y. 4-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limning asosiy stasistik ko‘rsatkichlari (2024 yil 1-yanvar holatiga). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. – Toshkent, 2024 y. 3-bet.

3. Наманган вилоятининг демографик ҳолати таҳлили - Review.uzНаманган вилоятининг демографик ҳолати таҳлили - Review.uz
4. Население Намангана (Узбекистан), численность в 2025 и 2024 | BDEX
5. Подведены итоги деятельности системы дошкольного образования в Узбекистане за первое полугодие 2023 года (юз.уз).
6. Quvonchbek Jahonov O'zbekiston ta'lif tizimining rivojlanishi // Education. Tashkent, 2024.